ZAMONAVIY SHAROITDA SAMARQANDDA YOG‘OCH O'YMAKORLIGI

Toshmamatov Mexroj Xamid o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti magistranti
mekhrojtoshmamatov@gmail.com
Abdiyev Erali Jo‘raboy o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti magistranti
eraliabdiyev3@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezis zamonaviy sharoitda Samarqandda yog'och o'ymakorligi san'atining holati, tarixi va rivojlanish tendensiyalarini etnologik nuqtai nazardan tahlil qiladi. Ish qadimiy manbalar, O'zbekiston Fanlar akademiyasi va «Hunarmand» uyushmasining rasmiy ma'lumotlari, hamda 2017–2023-yillarda qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari asosida yozilgan. Samarqand yog'och o'ymakorlik maktabining o'ziga xos xususiyatlari, taniqli ustalar faoliyati, davlat siyosati va sohadagi zamonaviy o'zgarishlar ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *yog'och o'ymakorligi, Samarqand maktabi, an'anaviy hunarmandchilik, «usta-shogird» tizimi, nomoddiy madaniy meros, N. Nazrullayev, H. Jalilov, J. Esanov, M. Ahadov «Hunarmand» uyushmasi, PF-91, «pargori», «bag'dodi».*

Abstract. *This thesis analyzes the current state, history, and development trends of the art of woodcarving in Samarkand from an ethnological perspective within a modern context. The research is based on ancient sources, official data from the Academy of Sciences of Uzbekistan and the "Hunarmand" Association, as well as Presidential decrees and resolutions adopted between 2017 and 2023. It examines the unique characteristics of the Samarkand school of woodcarving, the activities of renowned masters, state policy, and contemporary changes in the field.*

Keywords: *woodcarving, Samarkand school, traditional craftsmanship, "usta-shogird" (master-apprentice) system, intangible cultural heritage, N. Nazrullaev, H. Jalilov, J. Esanov, M. Akhadov, "Hunarmand" Association, PF-91, "pargori", "bagdodi".*

Аннотация. *В данной тезисной работе с этнологической точки зрения анализируются состояние, история и тенденции развития искусства резьбы по дереву Самарканда в современных условиях. Работа написана на основе древних источников, официальных данных Академии наук Узбекистана и ассоциации «Хунарманд», а также указов и постановлений Президента, принятых в 2017–*

2023 годах. Рассматриваются особенности самаркандской школы резьбы по дереву, деятельность известных мастеров, государственная политика и современные изменения в данной сфере.

Ключевые слова: *резьба по дереву, самаркандская школа, традиционное ремесленничество, система «уста-шогирд» (мастер-ученик), нематериальное культурное наследие, Н. Назруллаев, Х. Жалилов, Ж. Эсанов, М. Ахадов, ассоциация «Хунарманд», УП-91, «паргори», «багдоди».*

Kirish. Samarqand qadimdan O‘rta Osiyoning muhim madaniy va tarixiy markazlaridan biri hisoblanadi. Bu shahar asrlar davomida turli xil hunarmandchilik turlari, ayniqsa yog‘och o‘ymakorligi san’ati bilan mashhur bo‘lib kelgan. 2001-yilda Samarqand UNESCO tomonidan “madaniyatlar chorrahasi” sifatida Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu esa shaharning boy tarixi va undagi hunarmandchilik an’analari qanchalik muhim ekanini yana bir bor ko‘rsatadi. Hozirgi kunda ham mamlakatimizda an’anaviy hunarmandchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu yo‘nalishda turli qonun va qarorlar qabul qilinib, ustalarga qo‘llab-quvvatlash berilmoqda.

Ushbu tezisda Samarqanddagi yog‘och o‘ymakorligining kelib chiqishi, hozirgi holati, ustalarning faoliyati, davlat tomonidan berilayotgan yordamlar hamda mavjud muammolar haqida umumiy tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Yog‘och o‘ymakorligi O‘zbekiston hududida juda qadimdan mavjud bo‘lib, u asosan me’morlikda va turli ro‘zg‘or buyumlarini bezashda keng qo‘llanilgan. Movarounnahr hududida islom dini kirib kelishidan oldin ham yog‘ochdan tayyorlangan buyumlar ishlatilgan. VIII asrga kelib, eshiklarni turli o‘ymakor naqshlar bilan bezash odat tusiga kirgan. Bu haqda tarixchi Narshaxiy o‘zining “Buxoro tarixi” asarida ham ma’lumot berib o‘tgan.

Samarqandda yog‘och o‘ymakorligining eng qadimiy namunalaridan ba’zilari XI–XII asrlarga tegishli. Masalan, Qusam ibn Abbos maqbarasida yog‘och bezaklar uchraydi va ularda qushlar hamda turli afsonaviy mavjudotlar tasvirlangan. Shuningdek, Shohi Zinda majmuasi hududidan topilgan yog‘och o‘ymakorligi namunasi ham bu san’at turining nafaqat me’morlikda, balki kundalik hayotda ham muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Amir Temur va Temuriylar davri yog‘och o‘ymakorligi rivojida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda turli bezaklar yanada murakkablashib, yangi uslublar paydo bo‘lgan. Masalan, Ruhobod maqbarasi eshiklarida baliq tasviri, boshqa buyumlarda esa qush va ilon kabi jonivorlarning o‘ymakor shakllari uchraydi. XIV–XVI asrlarda turli maqbaralar uchun tayyorlangan eshiklarda qayrag‘och, yong‘oq va chinor yog‘ochlaridan foydalanilgan.

Shu davrda Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Qo‘qon kabi hududlarda alohida yog‘och o‘ymakorlik maktablari shakllanib, o‘ziga xos uslublari bilan ajralib tura boshlagan.

XVIII–XIX asrlarda ham bu san’at rivojlanishda davom etgan. Samarqand maktabi o‘zining uslubi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bu yerda ustalar yog‘och yuzasini loklab, naqshlarni yanada chiroyli va silliq ko‘rinishga keltirganlar. Umuman olganda, Samarqand va Buxoro o‘ymakorligi Xiva maktabiga o‘xshash jihatlarga ega bo‘lsa-da, ayrim tomonlari bilan Farg‘ona–Toshkent an’analariga ham yaqin hisoblanadi. Naqshlar orasida o‘simliksimon “islimiy”, geometrik shakllarga asoslangan “bag‘dodi” va sirkul yordamida chiziladigan “pargori” naqshlar keng qo‘llanilgan.

Mustaqillikdan keyingi yillarda O‘zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Shu maqsadda turli qonun va farmonlar qabul qilindi. Xususan, 1997-yil 31-martdagi Prezident farmoni hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu hujjat asosida “Hunarmand” uyushmasiga a’zo bo‘lgan ustalarga turli imtiyozlar berildi, jumladan ular mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda ayrim soliqlardan ozod qilindi.

2017-yil 17-noyabrda qabul qilingan Prezident farmoni hunarmandchilik sohasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutdi. Ushbu hujjat orqali hunarmandlarga ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Masalan, ular o‘z mahsulotlarini chet elga sotib, tushgan valyutadan erkin foydalanish huquqiga ega bo‘ldilar. Bundan tashqari, hunarmandlarga davlat mulki bo‘lgan ayrim obyektlarni maxsus shartnoma asosida sotib olish imkoniyati ham berildi.

2021-yil 30-dekabrda qabul qilingan yana bir muhim qarorda hunarmandchilik sohasidagi o‘sish ko‘rsatkichlari keltirilgan. So‘nggi yillarda hunarmandlar soni sezilarli darajada oshgan, ya’ni usta hunarmandlar 7 barobarga, shogirdlar esa 9 barobarga ko‘paygan. Hozirda bu sohada ishlayotganlar soni 230 ming nafarga yetgan. Shu qaror asosida har yili “O‘zekspomarkaz”da “Craft fair Uzbekistan” xalqaro hunarmandchilik yarmarkasini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Bu yarmarkada yog‘och o‘ymakorligi ham asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyish etiladi.

2023-yil 12-iyunda qabul qilingan Prezident farmoni ham hunarmandchilikni, jumladan yog‘och o‘ymakorligini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu hujjat asosida 2023–2024-yillarga mo‘ljallangan maxsus “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Shuningdek, hunarmandlar uchun soliq imtiyozlari ham berildi. Masalan, ma’lum miqdorgacha bo‘lgan daromad uchun soliq stavkasi kamaytirildi. Yana bir muhim jihat — ayrim ro‘yxatlarga kiritilgan hunarmandlar uchun soliq stavkalari yanada pasaytirildi. Bundan tashqari, yog‘och o‘ymakorligi bilan shug‘ullanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga kerakli xomashyo, ya’ni daraxtlarni yetishtirish uchun yer ajratish ham ko‘zda tutilgan.

Yog‘och o‘ymakorligi O‘zbekistonda bir nechta hududiy maktablarga ega bo‘lib, ular orasida Toshkent, Xiva, Qo‘qon, Farg‘ona, Buxoro va Samarqand maktablari alohida o‘rin tutadi. Har bir maktabning o‘ziga xos uslubi mavjud. Samarqand maktabining asosiy xususiyati shundaki, bu yerda ustalar o‘yilgan naqshlarning yuzasi va zaminini maxsus lak bilan qoplaydilar. Natijada naqshlar yaltiroq va silliq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu maktabda geometrik (girih), o‘simliksimon (islimiy) va arabeska naqshlar bir-biri bilan uyg‘un holda ishlatiladi va bu uning estetik jihatini belgilab beradi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, XX asrda Samarqandda yog‘och o‘ymakorligi an’analarini davom ettirgan ustalar orasida N. Nazrullayev va H. Jalilov alohida tilga olinadi. Ular bu san’atni davom ettiribgina qolmay, uni yangi uslublar bilan boyitgan va ko‘plab jamoat binolarini bezashda faol ishtirok etgan. Mustaqillik yillarida esa Samarqanddagi Registon ansambli, Shohi Zinda majmuasi va Bibi Xonim masjidi kabi tarixiy obidalarni ta’mirlash va bezash ishlarida ham mahalliy ustalarning hissasi katta bo‘ldi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi tizimidagi o‘quv yurtlarida professional ustalar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda esa J. Esanov, M. Ahadov, U. Rahmonqulov, N. Sohibnazarov, M. Asadov va boshqa ustalar Samarqand yog‘och o‘ymakorligini rivojlantirishda faol qatnashib kelmoqda.

Bugungi kunda Samarqandda yog‘och o‘ymakorligi asosan uchta yo‘nalishda rivojlanmoqda. Birinchisi — me’moriy bezaklar, ya’ni eshik, ustun, panjara, shift va boshqa qismlarni bezash. Ikkinchisi — badiiy-amaliy buyumlar tayyorlash, masalan, turli qutichalar, laganlar, qalamdonlar va ro‘zg‘or buyumlari. Uchinchi yo‘nalish esa musiqa asboblarini bezash bilan bog‘liq bo‘lib, dutor va tanbur kabi cholg‘ular bezatiladi.

Shuningdek, amaliy san’at o‘quv yurtlari va “Hunarmand” uyushmasi orqali yoshlarga bu sohaning nazariy va amaliy tomonlari o‘rgatilmoqda. “Usta-shogird” an’anasi ham hozirgacha saqlanib qolgan bo‘lib, u yosh hunarmandlarning tajriba orttirishida muhim rol o‘ynaydi.

Mustaqillik yillarida yog‘och o‘ymakorligini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, milliy qadriyatlarni tiklash, ularni rivojlantirish va zamonaviy elementlar bilan boyitish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Samarqandda yangi qurilayotgan va ta’mirlanayotgan binolar soni ortib borayotgani sababli yog‘och o‘ymakorlik buyumlariga bo‘lgan talab ham sezilarli darajada oshgan.

Turizm sohasida ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2019-yilda Samarqand Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasiga a’zo bo‘lgani mahalliy hunarmandchilikni, jumladan yog‘och o‘ymakorligini xalqaro miqyosda tanitish imkoniyatini kengaytirdi. Bu esa ustalar uchun yangi bozorlar ochilishiga sabab bo‘ldi.

Umuman olganda, hunarmandchilik mahsulotlari eksportining oshishi yog‘och o‘ymakorligiga ham ta’sir qilmoqda. O‘zbekistonning xorijdagi elchixonalari orqali bu turdagi mahsulotlar MDH davlatlari, Yevropa va AQSh bozorlariga chiqarilmoqda. “Craft fair Uzbekistan” xalqaro yarmarkasi doirasida samarqandlik ustalar o‘z ishlarini kengroq auditoriyaga namoyish etish imkoniga ega bo‘lmoqdalar. Hozirgi kunda Amazon va Etsy kabi onlayn platformalar orqali ham o‘ymakorlik mahsulotlari sotuvga qo‘yilmoqda.

Shu bilan birga, sohada ayrim muammolar ham mavjud. Eng asosiy muammolardan biri — sifatli xomashyo bilan bog‘liq. Ya’ni qayrag‘och, archa, yong‘oq, tut va chinor kabi daraxtlarni topish ba’zida qiyinchilik tug‘dirmoqda. 2023-yilda qabul qilingan farmonda bu muammoni hal qilish uchun yer ajratish masalasi ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, bu jarayon hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

Yana bir muammo — an’anaviy “usta-shogird” tizimining yetarli darajada rasmiylashtirilmaganidir. Shu bilan birga, yoshlarning ko‘proq zamonaviy kasblarga qiziqishi natijasida hunarmandchilikka bo‘lgan qiziqish ba’zan pasayib ketmoqda. Bu esa tajriba va bilimlarning avloddan-avlodga o‘tishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, arzon va ommaviy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan raqobat qilish ham hunarmandlar uchun muammo tug‘dirmoqda. Chunki bunday mahsulotlar narxi past bo‘lgani uchun bozorda tezroq sotiladi, bu esa qo‘l mehnati bilan yaratilgan buyumlarning raqobatbardoshligiga ta’sir qiladi.

Xulosa. Samarqand yog‘och o‘ymakorligi uzoq tarix davomida shakllanib, o‘ziga xos maktab sifatida rivojlangan. Bu maktabning asosiy belgilaridan biri — loklangan zamin va bo‘rtma usuli hamda islimiy, pargori va bag‘dodi naqshlarning uyg‘unligidir. Qusam ibn Abbos maqbarasidagi XI–XII asrlarga oid yog‘och bezaklardan boshlab, Temuriylar davridagi me’moriy ishlanmalar va XIX–XX asrlarda faoliyat olib borgan ustalar — N. Nazrullayev va H. Jalilov ijodigacha bo‘lgan davrda bu san’at turi izchil rivojlanib kelgan.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017–2023-yillar oralig‘ida qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu hujjatlar orqali hunarmandlarga turli soliq imtiyozlari berildi, xomashyo bilan ta’minlash masalalari ko‘rib chiqildi va ularning mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish imkoniyatlari kengaydi.

Hozirgi kunda Samarqandda yog‘och o‘ymakorligi turizmning rivojlanishi, eksport imkoniyatlarining oshishi va qurilish sohasidagi talab tufayli yangi bosqichga chiqmoqda. Shu bilan birga, bu sohada hali ham ayrim muammolar mavjud. Xususan, sifatli xomashyo bilan ta’minlash, an’analarni yosh avlodga yetkazish va bozordagi raqobatga moslashish muhim masalalardan hisoblanadi.

Shu sababli, ushbu muammolarni hal qilishda nafaqat davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat, balki ilmiy va amaliy tadqiqotlarning hamkorligi ham katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far an-Narshaxiy *Buxoro tarixi (Tarixi Buxoro)*. – Toshkent: Kamalak nashriyoti, 1991 (tarjima va izohli nashr).
2. Baratboyev. B.M ”Naqqoshlik va yog’och o’ymakorligi san’atining rivojlanishi” - cyberleninka.ru, 2021.
3. L. I. Rempel Arxitektura Sredney Azii. – Moskva: Stroizdat, 1966.
4. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi va madaniy merosi bo‘yicha ilmiy to‘plamlar. – Toshkent.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi “Yog‘och o‘ymakorligi” maqolasi. – Toshkent, 2000–2005.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF–5242 (17.11.2017). “Hunarmandchilikni rivojlantirish…” – lex.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ–77 (30.12.2021). “Hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash…” – lex.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF–91 (12.06.2023). “Hunarmandchilikni rivojlantirish…” – lex.uz
9. Murodova R.D “XIV–XVI asrlar hunarmandchiligi tarixi” - cyberleninka.ru, 2024
10. UNESCO World Heritage Centre Samarkand – Crossroads of Cultures. – whc.unesco.org
11. Uzbekistan Travel (rasmiy portal) Samarqand shahri va madaniy merosi haqida ma’lumotlar. – uzbekistan.travel